

**JASORAT MANGU YASHAYDI YOXUD SIND DARYOSI BO'YIDAGI  
JANG**

*Abdullayev Afzal*

+998935320429

*Davlatov Orziqul*

+998915790979

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

**Annotasiya:** *Jaloliddin Manguberdi hayoti juda tahlikali va xavf ostida o'tgan. Chunki u siyosat maydoniga chiqishi bilan mo'g'ullar bilan to'qnash keladi va shundan so'ng Xorazmshoh umrining oxirigacha mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. Bu kurashlardan biri Sind daryosi bo'yidagi jang hisoblanadi. Unda Jaloliddin misli ko'rilmagan jasorat ko'rsatadi va halokatdan qutulib qoladi. Biz quyidagi maqolada Sind daryosi bo'yida jang haqida ma'lumot beramiz.*

**Kalit so'zlar:** *Sind, xirovul, Chingizxon, keshik, Jud tog'i, jasorat, O'qtoy, mardlik.*

**Kirish.**

Jaloliddin Manguberdi 1221-yil G'aznani tark etadi. Bu yerni egallab olgan Chingizxon Xorazmshohning 15 kun oldin bu yerni tark etganini eshitadi. Nasaviyning boshqa biron manbalarda uchramaydigan ma'lumotiga ko'ra, Jaloliddin G'aznadan 50 km shimolda joylashgan Gardiz shahri yaqinida Chingizxonning xirovulini tor-mor keltiradi. Nihoyatda tezlikda harakatlanishi natijasida, 1221-yilning 20-noyabridayoq Chingizxon qo'shinlari Jaloliddinning Urxon boshliq chindovuliga (orqa qo'shini) yetib olib, u bilan jangga kirishadilar va mag'lubiyatga uchratadilar. Chingizxonning bunday tez harakati, Jaloliddinning Sind daryosidan kechib o'tib, butun qo'shin va oila-harami bilan Hindistonga o'tib ketishdek rejasining amalga oshmay qolishiga olib keldi. Bu jangda Jaloliddinning haqiqiy lashkarboshilik qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu voqealarni aks ettiruvchi deyarli barcha yozma manbalar ma'lumotlaridan biz shuni ko'ramizki, Chingizxonning qudratli qo'shiniga qarshi mardonavor kurashgan barcha

xalqlarning qahramonlari ichida Jaloliddingina munosib raqibi bo‘lgan, bo‘lganda ham eng asosiy va xavfli raqib bo‘lganligi ko‘zga tashlanadi. Zero, yer yuzining mo‘g‘ullar egallagan birorta hududidan mo‘g‘ullarga Jaloliddin kabi munosib qarshilik ko‘rsatgan kuch yoki qahramon chiqmagan edi. Garchand bu jang Jaloliddin uchun ma’lum bir yetarli sabablarga ko‘ra mag‘lubiyat bilan tugagan bo‘lsa ham, o‘z ko‘lamiga ko‘ra eng yirik janglardan biri bo‘ldi. Hatto hech bir mubolag‘asiz aytishimiz mumkinki, agar Jaloliddin bilan Chingizxon qo‘shinlari o‘rtasidagi farq unchalik ko‘p bo‘lmaganida edi, tarixni ham o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan hal qiluvchi janglardan biri bo‘lishi mumkin edi.

Asosiy qism.

Arab tarixchisi Ibn al-Asir: “Sind daryosi bo‘yidagi uch kunlik jang shunday shiddatli bo‘lgan ediki, boshqa janglar bu jang oldida bolalar o‘yinidak gap edi”, deb ta’kidlaydi. Shuning uchun biz bu jangni yozma manbalar ma’lumotlarini chuqur tahlil qilish asosida to‘liq tasvirlashga harakat qilamiz. Daryoni kechib o‘tishga kech bo‘lganligi uchun Jaloliddin Chingizxon bilan ochiq maydonda jang qilishga qaror qildi. U Jud tog‘i daralarining daryoga tutash yeridagi nisbatan qisqiroq maydonni tanlaydi. Hozirda bu daryoning ikkinchi qarama-qarshi sohili Cho‘li Jaloliy, daryoning Jaloliddin oti bilan sakragan darasi esa “Ot sakragan dara” deb ataladi. Jaloliddin bunday jang maydonini bejiz tanlamagan, albatta. U jang oldidan o‘zining butun lashkarboshilik qobiliyatini amalda qanday qo‘llashni bir necha bor chamalab chiqib, shu qarorga keldi. Chunki, u tanlagan maydonning chap tarafi o‘tib bo‘lmas tog‘ daralari va qalin yovvoyi pastbo‘yli daraxtlar bilan qoplangan chakalakzor bilan to‘silgan bo‘lsa, orqa tarafida esa tez oqar va kechish uchun juda xavfli Sind daryosi oqib o‘tardi. Bu holat maydon tor bo‘lganligi uchun Chingizxon qo‘shining son jihatdan ustunligini kamaytirishi bilan birga, mo‘g‘ullarning yon taraflardan qutilajak hujumlarni yo‘qqa chiqarar edi. Ammo, shu bilan birga Jaloliddin juda yaxshi bilardiki, aynan shu holat uning qo‘shining chekinish imkoniyatini yo‘qqa chiqarar ham edi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, Jaloliddinning Parvon jangidan keyin qo‘shin sonining kamayib ketishiga qaramasdan hamda o‘zidan ikki baravar ko‘p kuch bilan shaxsan Chingizxonning

o'zi turganligini bilsa ham unga qarshi hayot-mamot jangiga kirishganligini ko'rsatib turibdi.

Jaloliddin o'z qo'shinini qanotlari bilan daryoga tiralib turgan yarim oy shaklida safga tizdi. Nasaviyga ko'ra, har safargidek u qo'shinning markaziga rahbarlik qilgan bo'lsa, o'ng qanotga uning eng ishonchli amirlaridan biri hamda qaynotasi Amin al-Mulk boshchilik qilgan. Chap qanotga esa amir O'rxon rahbarlik qilgan. Uning qo'shinining umumiy soni taxminan 30000 jangchiga yaqin bo'lgan. Chingizxon ham bu jangni hal qiluvchi bo'lishini juda yaxshi bilgan va shu yerda o'zining eng xavfli raqibi ustidan g'alaba qozonib, uzil-kesil bu xavfni tugatishga harakat qilgan. Shuning uchun u deyarli barcha kuchlarini shu hududga jalb qilgan. Bu jangda uning qo'shini soni 80000 ga yaqin bo'lgan.

Chunki bu yurishga keyinchalik uning o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy va Tuli ham o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shilgan edi. Uning qo'shinlari son jihatdan ustun bo'lsa-da, tor maydonda keng ko'lamda harakat qilish imkoniniga ega emasdi. Shuning uchun u o'z qo'shinini izma-iz joylashgan uch qatordan iborat qilib, uch qismga bo'ldi.

Jangni birinchi Chingizxon boshlab berdi va birinchi qator jangchilarini jangga tashladi. Jaloliddin esa ularni kuchli o'q yomg'iri bilan kutib olib, ularni chekinishga majbur qildi va qaytadan jangavor saf tortib qarshi hujumga o'tmasligi uchun jang uslubini o'zgartirib, mo'g'ullar uchun kutilmaganda og'ir qurollangan otliq qo'shinini jangga tashladi. Natijada mo'g'ullar o'zlarining sevimli jang usuli, yolg'ondan chekinishga kirishdilar. Ammo, Jaloliddin ularning bu hiylasiga uchmasdan, darhol iziga qaytib, qo'shinini yana jangavor safga tuzdi. Mo'g'ullar kun davomida yana bir necha marta shunday hujumlar uyushtirdilar, ammo har safar ularning maqsadi amalga oshmay qolaverdi. Chingizxon jangning ikkinchi kuni jangga hali charchamagan yangi ikkinchi qatorni ishga soldi. Ammo, birinchi kundagi kabi qancha urinmasin vaziyatni o'zgartira olmadi. U tushunib yetdiki, an'anaviy usul bilan Jaloliddinni yengib bo'lmaydi. Shuning uchun u jangga barcha kuchlarni tushirib hamda qo'shini soni ustunligidan foydalanib ko'chmanchi halqlarning yana bir sevimli jang usuli "to'lg'ama"ni qo'llashga qaror qildi. Sind

daryosi bo'yidagi jangda ham Chingizxon bu usulni qo'llab, eng asosiy zarbani u o'ng qanotga berib, uni yanchib tashlab Jaloliddin qo'shinlarini o'rab olib yakson qilib tashlashni rejalashtirdi. U qo'shinlariga qanday qilib bo'lmasin mazkur qanot qarshi- ligini sindirib, asosiy zarbani xorazmliklarning yon tomonidan berishni buyurdi. Mo'g'ullarning son jihatdan ustunligi bu rejani muvaffaqiyatli amalga oshirilishga olib keldi. Xorazmliklar qo'shini dushman lashkari tomonidan tobora siquvga olina boshladi. Shundan so'ng Chingizxon uchinchi qo'shinini Jaloliddinning chap qanotiga tashladi. Jang tobora shiddatli tus ola boshladi. Xorazmliklarga chekinishning umuman iloji yo'qligi ularga yanada kuch bag'ishlab, o'z sultonlaridan o'rnak olib bor kuchlarini ishga solib jang qila boshladilar. Bu holat esa Chingizxonni ham tobora ko'proq tashvishga sola boshladi. Shu payt, yana u kutmagan holat ro'y berdi.

Natija va muhokamalar.

Jangning tobora o'zi uchun halokatli tus olayotganini ko'rgan Jaloliddin oxirgi bor dushmanga markazdan hujumga o'tdi. Ya'ni, Chingizxonning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatib turgan Jaloliddin uning maqsadini tushunib yetib, dushmanning asosiy kuchlarni o'ng va chap qanotlarga tashlaganligidan foydalanib, u kutmagan tarafga hujumga o'tdi. Ya'ni, Chingizxonning o'zi turgan markazga eng asosiy kuchlarini tashlab, bir zarb bilan uning o'zini yo'q qilib tashlash rejasini qo'lladi. Bu dadil harakat deyarli o'zini oqladi ham. Chunki, Jaloliddin Chingizxon qo'shinining markazini yorib o'tib, uning uchinchi korpusini yanchib tashladi va deyarli unga yaqinlashib qolgan edi. U Temur Malik va boshqa saralangan 1000 jangchisi bilan shundoqqina Chingizxon yaqinida jang olib borardi. Bir necha daqiqalarda Chingizxonning taqdiri hal qilishi mumkin edi. Ammo, Chingizxon unga qarshi o'zining eng saralangan 10000 kishilik xos soqchilar guruhi – "keshik"ni tashlashga majbur bo'ldi.

Bu qo'shin esa jangni uzil-kesil Chingizxon foydasiga hal qiladi. Shundan so'ng Jaloliddin jangning boy berilganligini tushundi. Dushman qo'lga tiriklayin tushmaslik uchun Jaloliddin ham oti bilan birga o'zini daryoga tashladi va narigi qirg'oq tomon oqib ketdi. Bu voqealar Chingizxonning ko'z o'ngida sodir bo'ldi.

Ko'rganlaridan hayratga tushgan buyuk xoqon o'z o'g'illariga qarab dedi: "Otaning faqat shunday o'g'li bo'lishi kerak. U shunday dahshatli jangdan omon qolib, shunday ofatdan kechib o'tib, omonlik qirg'og'iga yetib olgan ekan, undan har qanday xavf-xatarni, ko'plab tashvishlarni kutish mumkin".

### **Xulosa.**

Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar uchun tutib bo'lmas lochindek timsol bo'lib qoldi. Chunki quyida jangda ko'rib o'tdikki, Jaloliddin Manguberdi hayoti xavf ostida qolgan paytda ham eng aqlli qarorni qabul qiladi va muallaq halokatdan qutulib qoldi. Hozirgi kunda esa mustaqil yurtimizda Jaloliddinning yuksak jasoratini inobatga olib, "Jaloliddin Manguberdi ordeni" ta'sis etildi, Urganchda unga haykal o'rnatildi, bundan tashqari Jaloliddin Manguberdi nomidagi litsey tashkil etildi. Jaloliddin Manguberdi tarixini o'rganish uchun hozirda ko'plab konferensiyalar, ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etilyapti. Bularning hammasi buyuk jasorat sohibi Jaloliddin Manguberdi uchun.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Masharipov. Q. "Jaloliddin Manguberding jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o'rni" Toshkent "Yoshlar:Media print" 2021. B-105-113.
2. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy "Siyrat-as sulton Jalol ad-Din Mangburni" Tarjimon Kamol Matyoqubov. Toshkent "O'zbekiston", "Yozuvchi" 1999. B-153-154.
3. Omonullo Bo'riyev, Nuryog'di Toshev "Jaloliddin Manguberdi: davri, sarkardalik faoliyati, manbalar". Toshkent "Fan" 1999. B-25.
4. Hamidulla Dadaboyev "Ajdodlarimizning harbiy mahorati" Toshkent "Akademnashr" 2016. B-106.
5. Qo'ldosh Ergashev, Hojiakbar Hamidov. "O'zbekiston tarixi" Toshkent "G'afur G'ulom" 2015. B-190-191.
6. Ziyo Bunyodov "Anushtagin Xorazmshohlar(1097-1231)" Toshkent "G'afur G'ulom" 1998. B-200-201.